
Umumxalq hashari doirasida” Yashil makon” dasturi ijrosi

Umumxalq hashari doirasida” Yashil makon” dasturi ijrosi yuzasidan Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyida ham hashar bo’lib o’tdi.

Umumxalq hashari doirasidagi “Yashil makon” dasturi yuzasidan akademik litseyda ham hashar tashkil etilib, nafaqat hududda tozalash ishlari olib borildi va mevali daraxtlar ko’chatlari ham o’tkazildi.

Hasharda akademik litsey ijrochi direktori Zokir Bazarov boshchiligidagi hodimlar guruxi ham faol ishtirok etishdi va yaxshi niyat bilan yerga ko’chat qadashdi!

Hashar davomida yerlarni chopish, daraxtlarga shakl berish va oqlash, supurish, chiqindilarni belgilangan hududlarga olib chiqish ishlari qizg’in amalga oshirildi.

